

ABRI-BAHOR SAN'ATI

Urinbayev Isroiljon Kadirjonovich,

Andijon davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası o'qituvchisi

Abdujabborova Munisa G'olibjon qizi

Talabasi, Amaliy san'at (badiy kulolchilik) yo'nalishi

Annotatsiya:

Qadimdan qog'oz, ipak matolarini bo'yash uchun turli xildagi yo'nalishlar qo'llanilgan. Bunday yo'nalishlarning zaminida xomashyoni rangga botirish jarayoni yotadi. Ushbu jarayon, ya'ni, qog'ozni xuddi mato kabi rangga "botirish" vositasi asosida Abri-bahor san'ati vujudga kelgan.

Kalit so'zlar: san'at, mato, ranglar, xomashyo, kitob, dastxat, miniatyura, suyuqlik, jarayon.

Abri bahor — so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "Abr"- bulut ma'nosini bildirsa, "Bahor" yilning eng go'zal faslini bildiradi. So'zlarni tarjima qilsak, "Bahor bulut-lari" degan ma'no kelib chiqadi. Haqiqatan ham suyuqlik ustida yotgan ranglar jilosi bahor bulutlardek musaffo, toza va rang-barang shakllar hosil qiladi.

Abri-bahor – asosan qadimdan kitobat san'atida qo'lyozma kitob sahifalarini bezashda, shuningdek shu usulda yaratilgan tasvirlarda qo'llanilgan.

Qo'lyozma kitoblarni bu usulda bezatish Hirot kitobat san'atida taraqqiy etdi, XVI-XVII-asrlarda keng tarqaldi. Tabriz, Qazvin, Isfahon va boshqalarda shu usulda bezatib tayyorlangan qo'lyozmalar uchraydi. Xozirgi kunda unutilib ketgan Abri bahor san'atini qaytadan tiklashga urinishlar bo'ldi. Jumladan, O'zbekistonda 1991-yil Abri bahor san'atini tiklagan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining bir guruh ilmiy xodimlari (A. Madraimov, Sh. Muhammadjonov, M. Salimov va boshqalar) shu usulda bezatilgan bir necha qo'lyozma kitoblarni qayta tikladilar.^[1]

Ustalar tilla zarralar bilan ishlangan Abri bahor qog'ozi ham tayyorlangan.

Maxsus idishdagi daraxt yelimining suvdagi eritmasiga yelim va boshqa moddalar bilan aralashtirib, tayyorlangan turli rangdagi bo'yoqlarni mo'yqalam yordamida navbati bilan (to'q rangdan och rangga qarab) solinadi. Maxsus taroq vositasida turli rasm (tasvir)lar hosil qilib, taralgan yelim yuzasidagi bo'yoqlar ustiga sur qog'oz yopiladi; bir necha daqiqadan so'ng u ohista olinib, qog'ozdagi suyuqlik oqib tushishi uchun bir uchidan osib qo'yiladi, keyin soya joyda quritiladi. Abri bahorning egri-bugri chiziqli mavhum gullaridan tashqari mujassamotga ustalar turli handasiy shakllar, o'simliksimon mavzular, hatto she'riy parchalar ham kiritishgan. Abri bahor gullari biri ikkinchisini takrorlamagan. Faqat mohir ustalargina aynan bir naqshni bir necha marta takroran yaratishga erishgan.



Xattotlar o'zlarini san'atlarini namoyish qilish maqsadida kitob bezash va dastxat uslublarini chiroyli va jim-jimador yozishga harakat qilganlar, bunda albatta, rassomlar ham ishtirok etib, kitoblardagi voqelikni miniatyura usulida tasvirlaganlar. Bunday usul o'z davrida yozilgan kitoblarning mazmunini ochib berish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Sotuvga chiqarilgan kitoblar, kitobxonni o'ziga jalb etishi uchun uning tashqi ko'rinishi (sirti) nihoyatda ahamiyatlidir.

Sharqda **kitobnavislik** bilan shug'ullanadigan ustaxonalar anchagina bo'lgan. Har bir ustaxonaning uziga xos kitob bezash va dastxat yozish uslublari bo'lib, unda o'zlarining rassomlari, xattotlari va kitob muqovalovchilari ham nafas ijod qilganlar.

Ustaxonalarda qog'ozlarni badiiy bezak berishlari doimiy rivojlanib kelgan, kitobning mazmuniga qarab har xil ranglar va turli shakllar qo'llanib bezatilgan. Ko'pincha, faqatgina bezatilgan qog'oz xattotning qo'lga kelib tushgan va xattot o'z ishini bezatilgan qog'ozda bajargan.

Qog'ozlarni bezash yoki "Abri-bahor" uslubining bajarish jarayoni qanday kechgan?!

Bugungi kunda "Abri-bahor" uslubining ikki xil yo'nalishi bor.

Birinchi – qadimda faqat kitobnavislik san'atidan foydalanib, hozirgi kungacha o'zining mohiyatini yo'qotmagan usuldir.

Ikkinchisi - “Abri-bahor” uslubiga yaqin bo’lga, lekin boshqacha yo’nalish olgan va hozirgi kunda o’zining rivojlanish pog’onasida turgan usul.



Avval biz birinchi usul jarayoni haqida to’xtalib o’tamiz.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu usul qadimda kitobnavislar tomonidan ixtiro qilinib ishlatilgan. “Abri-bahor” qog’ozini tayyorlanish joyi va ishlatiladigan asbob uskunalarni tayyorlanishdan boshlanadi.

Idishga oldindan tayyorlangan suyuqlik solinadi. Bu suyuqlik “Kitra” deb nomlangan, u yelimga o’xshash moddani suvda eritish evaziga hosil qilinadi. “Kitra” Osiyo davlatlarida o’sadigan butasimon o’simlik shirasidir, qotgan “Kitra” butalar ostidan terib olinadi, ishlatish zarurati paydo bo’lishidan 3-4 kun oldin “Kitra” talqon holatigacha maydalanib, taxminan 5 litr suvga 50 gramm maydalangan “Kitra” solinadi. 3-4 kun turgandan so’ng u suvda iviydi va suv bilan aralashib quyuq holatga keladi. “Kitra” qancha ko’p qo’shilsa, suv shuncha quyuqlashadi va aksincha. Shuni aytish kerakki, “Kitra” hamma joyda ham o’smaydi. Shuning uchun uni topish oson bo’lmaganligi sababli, ustalar “Kitra”ning o’rnini bosadigan biror boshqa modda topishlari kerak bo’ldi. Natijada, “Kitra”ning ko’pgina mevali daraxtlardan oqadigan shiraga o’xshashligi va uning vazifasi asosiy vazifani suvni rangini o’zgartirmasdan quyuqroq holatga keltirish bo’lganligi uchun, bu vazifani hozirgi kunda gul qog’ozni devorga yopishtirish uchun ishlatiladigan yelim bimalol bajaradi. Shuning uchun zamonaviy ustalar shu oddiy yelimdan foydalanib, “Abri-bahor” qog’ozini tayyorlayadilar. Yelimni ishga tayyorlash usuli “Kitra”ni tayyorlash usuli bilan bir xil. “Kitra” tayyor bo’ldi, endi uni “Abri-bahor” tayyorlanadigan idishga solinadi. idish tekis joyda turishi shart.

“Abri-bahor” tayyorlash uchun har qanday turdagi qog‘oz ishlatsa bo‘ladi. Qog‘ozning o‘lchami idishning o‘lchamidan to‘rt tomondan ham 5-10mm kichik bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Abri-bahor”da asosan suvda eriydigan bo‘yoqlar ishlatiladi. Quruq unsimon bo‘yoqlar (pigmentlar) bo‘lgani maqsadga muvofiqdir. Usta necha xil rang ishlatishiga qarab, idishlar sonini tanlaydi.

Har bir rang alohida idishda eritib tayyorlaydi. Bo‘yoqlar sut holatida bo‘lsa, ishlash osonroq bo‘ladi.

Har bir rang uchun alohida mo‘yqalamlar ishlatiladi. Bitta mo‘yqalam hamma ranglarga solinmaydi, chunki bu ranglar musaffoligini buzadi. Ranglar juda toza bo‘lishi shart.

Mo‘yqalamlarni o‘zingiz ot dumidan tayyorlasangiz ham bo‘ladi, chunki mo‘yqalam bilan chizilmaydi, u bilan ranglar olinib suvda tayyorlangan “Kitra” ustiga sepiladi.

Mo‘yqalamdan tashqari har xil qalinlikdagi simlardan tayyorlangan bigizlar va taroqlar ishlatiladi. Ular yordamida kitra ustiga sepilgan ranglarga turlicha shakllar beriladi. Taroqlar har xil qalinlikdagi simlardan tayyorlanadi. Taroqlarning tishlari orasidagi masofa ham turlicha bo‘lishi mumkin. Taroqning umumiy uzunligi mos bo‘lsa, shakllar chiroyli va ravon chiqadi.


“Abri-bahor”da yana bir modda ishlatiladi u ham bo‘lsa, qoramolning zahradonidan olingan zara yoki zardob.

Zardobning vazifasi – bo‘yoqlarni suyuqlik ustida yoyilishin ta’minlash. Zardob alohida-alohida idishlarda tayyorlangan ranglarga 3-6 tomchi tomizdiriladi. U tomizilgan ranglar suyuqlik ustiga sepiladi. Suyuqlik ustiga sepilgan ranglar bir-biri bilan chiroyli ko‘rinish, hayratomuz ranglar uyg‘unligini hosil qiladi.

Endi hamma asboblari va kerakli narsalarning tayyorligini yana bir marotaba tekshirib chiqiladi:

1. Idish va unga solingan “Kitra” suyuqligi;
2. Kerakli ranglar solingan alohida-alohida idishlar;
3. Necha xil rang bo‘lsa, shuncha dona mo‘yqalam;
4. Shpritsga olingan zardoba (zara);
5. Bosmadan chiqarish uchun tayyorlangan qog‘ozlar;
6. Bigizlar va taroqlar.


Hamma narsa ishga tayyor bo'lganligiga ishonch hosil qilingandan so'ng, "Abri-bahor" tayyorlashga o'tiladi.



Qo'yuq holatdagi suyuqlik (kisel) solingan idishga oz-ozdan kerakli 3-4 tomchi zardoba solingan ranglardan mo'yqalamlar yordamida sepiladi. Ranglar suyuqlik ustida turadi, ularga shakl berish uchun bigiz va taroqlardan foydalaniladi.



Bigiz yoki taroqlar yordamida ranglar kerakli tomonga yo'naltiriladi, ranglardan o'zimizga ma'qul bo'lgan shakl hosil bo'lganiga ishonch hosil qilgandan so'ng toza qog'oz shu rang ustiga yotqiziladi.



Suyuqlik ustidagi ranglar qog'ozga o'tadi va oddiy qog'ozdan chiroyli bezatilgan qog'oz hosil bo'ladi.



Qog'oz obdon qurib tayyor bo'lgandan so'ng xattot o'z vazifasini bajarishga kirishadi. "Abri-bahor"ning qadimiy kitob navislikda ishlatiladigan usulining jarayoni mana shundan iborat.

Bizning maqsadimiz asosan, ikkinchi, zamonaviy, "Abru-bahor" usuliga yaqin bo'lgan yangi usul bilan tanishtirishdan iboratdir.

Bu usulni "Abru-bahor" deb nomlaganimizning sababi shundan iboratki, ish jarayoni bir-biriga juda o'xshashdir. Agar ikkala usul bir-biri bilan taqqoslansa, oralaridagi o'xshashlik va tafovut yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi usulda suvga "Kitra" qo'shib suvni quyushtirsak, ikkinchi usulda suvga hech narsa qo'shilmaydi va toza suv ishlatiladi. Ikkala usulda ham suv ustida turgan ranglarga toza qog'ozlar bostirib olinadi. Ikkalasida ham maqsad bitta bosmadan chiqqan chiroyli qog'ozlar tayyorlash. Shunga qaramay orasidagi tafovut sezilib turadi.

Birinchi usulda suvda eriydigan bo'yoqlar ishlatilsa, ikkinchi usulda moy bo'yoqlar ishlatiladi. Birinchi usulda yordamchi asboblardan bigiz va taroqlar ishlatilsa, ikkinchi usulda hech qanday asbob ishlatish shart emas.

Birinchi usulda suyuqlik ustidagi ranglarni nisbatan nazorat qilib, unga kerakli shakllarni berish imkoniyati bo'lsa, ikkinchi usulda bunday imkoniyat kamroq, ranglar o'z holicha suv yuzasida shakllar paydo qiladi. Uni nazorat qilish murakkabroq. Birinchi usulda tayyorlangan qog'ozlar faqat kitobnavislikda ishlatilsa, ikkinchi usulda bosmadan chiqqan qog'ozlarda tasviriy san'at asarlari yaratish imkoniyatlari katta.

Tajribadan kelib chiqib, shuni aytmoqchimizki, bu usul bilan bir marta shug'ul-langan rassom unga qayta-qayta murojat qilaveradi. Chunki bu usulda tayyorlangan qog'ozlarda bo'yoqlar rang-barangligi, ranglarning o'zaro mutanosibligi, uyg'unligi va yonma-yon turgan ranglar jilosi juda chiroyli shakllar hosil qilganligi rassomni o'ziga rom qiladi, zavqlantiradi va ilhomlantiradi. Chiroyli ranglardan hosil bo'lgan shakllar rassomdan faqatgina zukkolik, kerakli kompozitsiyalarni ko'rishni, his etishni talab etadi.

Ko'pgina qog'ozlarda paydo bo'lgan shakllar o'zi allaqanday shakllarni, voqelikni, kompozitsiyani ifodalaydi, rassom paydo bo'lgan gamma va koloritdan chetga chiqmasdan shakllarni chizsa bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. "Abri bahor" O'zME. A-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abri_bahor